

Sharqda yoqilgan tafakkur chiroqlari

(yoxud Dantening Sharqdan olgan ilhomlari)

Abduvahob Zaripov SamDU II bosqich magistranti

Jahon tammadduni tarixini yaxlit o`rganib, har bir xalqning bashariyat tafakkur taraqqiyotiga qo`shgan hissasini xolisona baholagan, G. Gerder shunday degan: “**Yevropalik birorta xalq yozuvni o`zi kashf etgan emas: ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; Shimoliy, G`arbiy va Sharqiy Yevropa madaniyati yunonrumo – arab urug`idan unib chiqqandir**”. Yevropa Sharqdan savodxonlikni, aniq fanlar va ularni egallash usullarini, dehqonchilik, chorvachilik ilmlarini, dengizda suzish hunarini, harbiy texnikani o`rganib oldi. Sharq xalqlari g`arblik birodarlariga qadim zamonlardayoq tasviriy san`at va arxitektura, she`riy san`atni ham in`om etganlar. Sharqlik savdogarlar ilk bora Osiyo bilan Yevropa o`rtasidagi tijorat yo`llarini ochganlar.

Italiya Uyg`onish davrining ulug` shoiri Dante Aligeri bilim doirasi, tafakkur dunyosi g`oyat keng san`atkordir. Dante qadimgi Sharq madaniyati yutuqlarini ham o`zlashtirgan. Asarlariga sharqona ruh va an`analarni mohirona singdirib yuborgan. Sharqlik olimlar nomlarini asarlarida ehtirom bilan tilga olib o`tgan. Ammo bu, shoir o`zi o`qib foydalangan barcha mualliflarni nomma – nom qayd etgan deganimiz emas. Dantening “Bazm” asarida keltirilgan fanlar tasnifi Abu Nasr Forobiyning “Ixso – ulum” risolasiga muvofiq keladi. Tabiatshunoslik, ilmi nujumga oid ma`lumotlarni esa shoir Al – Farg`oniy asarlaridan tasarruf etgan. IX asrda yashagan farg`onalik allomaning yulduzlar ilmiga doir ishlar italyan shoiriga asosiy dasturilamallik vazifasini o`tagan. “Bazm”da bayon etilgan mushohadalar, “Ilohiy komediya”da keltirilgan falak tuzilishlari tasviri ham ko`p jihatlardan Al – Farg`oniy kuzatishlariga borib taqaladi. “Astronomiya masalalarida Dante ko`proq Al – Farg`oniyga tayangan. Uning asarlari Dantening falakiyot haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. “Ilohiy komediya”da tasvirlangan osmon jismlari, ular harakati va xususiyatlari borasidagi gaplar, masofa o`lchovlari hamma – hammasi Al – Farg`oniydan olingandir. “Bazm”da Dante farg`onalik olim ishlaridan iqtiboslar keltirar ekan, uning fikrlarini boshqa munajjimlar qarashlaridan ustun qo`yadi. “Jannat”ning to`qqizinchi qo`shig`i mazmuni ham Al – Farg`oniydan olingandir. Dante, Ahmad Farg`oniydan tashqari, arab olimi Abu Is`hoq al – Bidrog`iy, balxlik munajjim

Abu Ma'sharni ham bir necha takror tilga olib, ular asarlaridan foydalanganligini ta'kidlaydi.

“Ilohiy komediya”ning “Do`zax” qismi to`rtinchi qo`shig`ida Dante Gomer, Esxil, Sofokl, Arastu, Aflotun, Suqrot, Pifagor, Geraklit, Demokrit kabi qadimgi dunyoning boshqa donishmandlar davrasida Dante Sharq allomalarini ham uchratadi:

Ko`zimni uzoqqa yugurtdim shunda:

Hisobdan Evklid, Batlimus, Galen,

Gippokrat, Ibn Sino, Ibn Rushid paydo-

Yangi g`oyalarni targ`ib etgan chin.

Sharqning ikki buyuk mutafakkiri – Ibn Sino va Ibn Rushd shoir salaflari majlisi – “bazzm”ning aziz mehmonlaridirlar. Dante Aflotuni faylasuf sifatida ulug`lab, uning asarlariga chuqur e`tiqod bilan qaraydi. Ammo, barcha asarlarida ham yunon mutafakkiri yonida Ibn Sino va Ibn Rushd nomini sanaydi. Ibn Sino bilan Ibn Rushd nomlarining “Bazzm” va “Ilohiy komediya” asarida ham dunyo donishmandlari qatorida tilga olinishi bejiz emas. Avvalo Dante ularni, orada ming yillik masofa yotsa-da, maslak va dunyoqarashda Arastu ham Aflotunning sobitqadam izdoshlari, deb biladi. Bu davrda Ibn Sino bilan Ibn Rushd obro`si Yevropada Aristotelnikidan kam emas, qolaversa Aristotelning o`zini ham G`arbga, chin ma`noda, sharqlik ana shu ikki faylasuf tanishtirgan edilar. Shoir Ibn Sino bilan Ibn Rushdni “yangi kun g`oyalarini targ`ib etuvchilar” sifatida ulug`laydi. Shoir ulug` hakimlar Ibn Sino va Ibn Rushdni o`zining birinchi darajali ustozlari qatoriga qo`shib, ulardan ta`lim olgan, buyuk aql egalari ishtirokidagi tafakkur bazmi to`ridan ular uchun joy ajratgan. Dante Ibn Sino va Ibn Rushd nomini ko`pincha yonma – yon tilga oladi. Zero, XII asrda Qurudobada yashagan Ibn Rushd Ibn Sinoning sadoqatli shogirdi, uning falsafiy qarashlarini rivojlantirib, muxoliflar xurujidan himoya etgan buyuk faylasufdir. Dante “Monarxiya” (“Saltanat”) asarida Ibn Rushd izidan borib, ruhoniylar hukumronligini inkor etadi va adolatli hukumdor boshchiligidagi yagona davlat g`oyasini ilgari suradi. Chunki, Ibn Sino va Ibn Rushd fikrlarini Dante ularning lotin tiliga o`girilgan asarlaridan o`qib o`rgangan. Shoir Arastu, Aflotun, Jolinus, Batlimus singari qadimgi yunon mutafakkirlari asarlarini ham Ibn Sino va Ibn Rushd talqinida qabul qilgan. Ibn Rushdning “Tafsiri kabir”, Ibn Sinoning Arastu kitobi “Al-fannut tabiiyun”ga sharhi, Forobiyning “Analitikus

soniy”sidagi mushohadalar “Monarxiya”, “Bazm” hamda “Ilohiy komediya” mag`zi-mag`ziga singib ketgan, shoirning odam va olamga qarashlarini teranlashtirgan.

Rus danteshunosi Golenishchev – Kutuzovning ko`rsatishicha, shoir nurlar haqidagi ta`rifni ham Ibn Sinoning “Ruh to`g`risida”gi (“Kitob ush – shifo”ning bir qismi) asaridan olgan. Ibn Sino ta`limotidagi, ruhning muhabbat vositasi bilan kamol topishi, ulug` Dantenini benihoya qiziqtiradi. Italian shoiri sharqlik faylasuf g`oyalarini to`la o`zlashtirib, o`z ijodining nazariy dasturiga aylantirgan. Ibn Sino g`oyalari Danteda “Do`zax”, “Ahrof”, “Jannat” ahli obrazlari orqali badiiy ifodalanadi. Shuningdek, asarda gunoh savoblar darajasi, mukofotlar “ierarxiyasi” bo`yicha tabaqalanishlar ham, Ibn Sinoda bo`lganidek, aynan ishq xislatlari ta`rifidan keltirib chiqarilgandir.

“Hayy ibn Yaqzon”dagi osmon jismlariga sayohat, ularning xususiyatlarini bayon etish manzaralari bilan Dante asaridagi shoirona tasvirlar orasida o`zaro o`xshashlik bor. Ibn Sino yozadiki, sayyoralarga ko`tarilgan ruhlar orasida totuvlik, hamjihatlik mavjud, ularning hayotlari farog`atda, o`zlari serharakat, xushxulqdirlar. Utorudda olimlar, san`atkorlar, Zuhrada – xushfe`l, go`zal kishilar istiqomat qiladilar. Ular safo va sevgiga o`ch, soz chalib, ohanglar og`ushida yashaydilar. Danteda ham: Oy – farog`atli ruhlar makoni, Merkuriy – sharafparastlar, Zuhra – ishqibozlar, sozandalar, xushsurat kishilar joyi. Ibn Sinoda: Mirrix – jangari, urushni, qon to`kishni sevuvchilar makoni; Danteda: Mars – din uchun jang qilganlar, urushqoq zotlar qarorgohi.

“Hayy ibn Yaqzon”da to`qqizinchi osmon belgilaridan gapira turib, Ibn Sino: “Inson ruhi u erga tushmaydi, faqat yondosh mamlakat ahliga u erdan amru farmonlar kelib turadi”, - deydi. Bu farmonlarni farishtalar yetkazib turadilar. Alloma bu o`rinda “Risola fil – ishq”da aytgan fikrini takrorlaydi. Dante ham dastlab “Bazm” asari, keyin “Ilohiy komediya”da to`qqizinchi osmon mavjudligi, uning daxlsizligi hamda butun olamga ishq va nur taratishini qayd etadi. Shuni aytish kerakki, “Ilohiy komediya”dagi “Do`zax” ahlini eslatuvchi obrazlar eng avval “Hayy ibn Yaqzon”da uchraydi. Eronshunos E. Bloshe “Ilohiy komediya”ning sharqiy manbalari maqolasida keltirishicha, Dantening “narigi dunyo”ga sayohati Zardusht dinidagi taqvodor Viraf tushlarining aks – sadosidir. Shoir buni islom aqidalari orqali qabul qilgan bo`lishi kerak, deydi olim.

E. Bertels dostonni qisqacha tahlil etgach, yozadi: “Shunday qilib, bu asar oʻz tarkiboti bilan “Ilohiy komediya”ning aniq monandidek koʻzga tashlanadi, hatto, ayrim tasvirlari ajib bir tarzda Dante “doʻzaxi”ni xotiraga keltiradi”. Ammo, biz nafaqat “tarkiboti” va epizodlari, balki asosiy motivi, pafos va etakchi gʻoyalari bilan ham Dante poemasi Sanoiyning “Sayrul ibod”iga yaqindir, deb aytgan boʻlar edik. “Ilohiy komediya”ga ham chuqurroq nazar tashlasak, “Sayrul ibod”da Sanoiy boshidan kechirgan, koʻzi bilan koʻrgan manzaralar, voqealarning shohidi boʻlamiz. Birinchi qoʻshiqda Dante zim – ziyo oʻrmonda adashib qoladi. Oʻrmonning dahshatli tasviri beriladi. Shoir vujudini oʻlim vahimasi qamrab oladi. Vergiliy uni bu qutqulardan xalos qilib, olgʻa etaklaydi. Bularning hammasi shartli, timsoliy obrazlardir. Vergiliy boshlab kirgan “doʻzax” ana shu yomon xislatlar oqibati – begonalashib, tubanlashgan ruh iztiroblari. “Sayrul ibod”da ham Sanoiy aynan shunday usulni qoʻllagan. Undagi dahshatli tasvirlar Dante “Doʻzax”ida bir muncha kengaytirilib, zamonasiga muvofiqlashtirilib gavdalandiriladi. “Doʻzax”dagi jazo usullari, jirkanch maxluqlar suratlari tasviri “Sayrul ibod”ga juda ham oʻxshashdir. Sanoiy oʻz piri bilan sayr etganidek, Dante ham oʻz ustoz Vergiliy bilan “doʻzax”ni kezib chiqadi. “Sayrul ibod”da dastlab behudud zulumat, tubsiz qorongʻulik, dahshatli tasvirlar keltirilib, keyin asta – sekin yorishib boruvchi manzara – eng oxirida nurga gʻarq boʻlish bayon etilganidek, “Ilohiy komediya”da ham “Doʻzax” – qorongʻulik va qiynoqlar diyori, “Aʼrof” – zulumatdan ziyoga yuz tutish, “Jannat” esa safo, huzur – halovat oʻlkasidir. Bunda ham nurga gʻarq boʻlinadi. Shuningdek, ichki psixologik tasvirlar ham ajib bir tarzda uygʻundir: Sanoiy va Dante ham dahshatli maxluqlar, jirkanch manzaralarni koʻrib, qoʻrquvga tushadilar, vahima bosadi va albatta, har ikkovlarining ham yoʻlboshchilari tadbir bilan baloni daf etadilar. “Sayrul ibod”dagi moʻysafid ham, “Ilohiy komediya”dagi Vergiliy ham yarim yoʻldan orqaga qaytishadi. Demakki, Dante asari ayrim tadqiqotchilar aytganlaridek, faqat shakli bilangina emas, ichki tuzilishi bilan ham Sharq adabiyoti namunalariga monanddir. Bu hol “Sayrul ibod”ning, qanday yoʻsinda boʻlmasin, ulugʻ Dante Vataniga yoʻl topganligini koʻrsatadi. Italiya sharqshunosi Aleksandr Bauzani shunday deydi: “Dante oʻz “Ilohiy komediya”si tashqi qurilishini tuzishda islom madaniyatidan foydalanganligi shubhasizdir. Ammo, “ilohiy komediya”ning botiniy mazmuni masalasida ham Dante Sharq taʼsiridan qutulolmadi”.

Sharq adabiyotining Dante ijodiga ta'siri masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'kidlanib keladi. Ammo, ular Ibn Sino falsafisi bilan. Dante qarashlari, ular asarida ifodalanmish konsepsiyalarni keng miqyosda qiyoslab, batafsil tekshirmaydi. Ibn Sino g'oyalari, jumladan, uning muhabbat haqidagi ta'limoti alloma asarlarining bevosita lotincha tarjimalari hamda uning izdoshlari hisoblanmish arab tadqiqotchilari, Yevropalik faylasuflar tufayli italyan shoiri Dantegacha etib borganligi shubhasizdir. Buyuk Dante buyuk Sharqning buzurgvor allomalari Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Ibn Rushd asarlari, islom ma'rifatidan bahramand bo'lgan edi.

Ibn Sinoning mashhur "Hayy ibn Yaqzon" qissasi ta'siriga kelsak, u bevosita lotin tiliga tarjima qilinmagan bo'lsa – da, bilvosita, boshqa asarlar orqali Yevropaga ma'lum edi. Biz, Dante o'z dostoni g'oyalarni, ijodiy usullarini butunligicha Sharqdan oldi, demoqchi emasmiz. U, avvalo, xristian Yevropasining shoiri. Narigi dunyoga sayohat usulida asar yozish Dantega qadar ham Yevropa adabiyotida uchraydi. Dantening "narigi dunyo"si Arastu va Ibn Sino, Ibn Rushd va Sanoiy tasniflari bo'yicha tuzilgan g'oyat tugal xayoliy imorat. "Ilohiy komediya" va Dantening boshqa kichik asarlarida ham ko'plab Sharq afsonalari, tarixiy hikoyalar keltiriladi. Chunonchi, "Saltanat" va "Ilohiy komediya"da ham Kayxusravni tor – mor etgan malika To'maris matonati mardona kuylanadi: "Forslar shohi Kir... G'arb viloyatlarini egallay olmadi, chunki skiflar malikasi To'maris zarbalari ostida niyati tugul, o'z hayotidan ham mahrum bo'ldi" ("Saltanat", II, 8).

Xullas, Sharq – G'arb adabiy – madaniy aloqalarining bir xalqasi Ibn Sino – Dante munosabatlari bo'lib, ikki buyuk jahoniy zotning hamfikrligida o'z aksini topdi. Xayyom va Shekspir, Rumi va G'egel, Xofiz va Gyote ijodlarining o'zaro aloqadagi rivoji Ibn Sino va Dante aloqalarining davomidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Komilov, Tafakkur karvonlari, Toshkent, "Sharq", 2011.
2. Komilov N. Ibn Sino va Dante. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983.